DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-68 Pages: 591-598

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

# CHALLENGES OF DISTANCE LEARNING IN TEACHING ARABIC WAYS TO SOLVE THEM

***Zamira Z. Tojieva***
*Lecturer*
*Department of Theory and Practice of Arabic Translation*
*Uzbekistan State University of World Languages*
*Email: zamira.tojiyeva@mail.ru*
*Uzbekistan, Tashkent*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** distance learning, online education, traditional classroom, Arabic language, COVID-19, technology, method, difficulty, teacher, student.

**Received:** 06.03.25
**Accepted:** 08.03.25
**Published:** 10.03.25

**Abstract:** COVID-19 served as one of the most influential factors in the global spread of distance learning. During this pandemic, not only students but also teachers faced numerous difficulties in organizing classes in accordance with the prevailing situation. With the onset of technology-based education during the pandemic, Arabic language teachers, like other language instructors, encountered challenges in using new technologies. Many teachers faced obstacles in using online platforms such as Zoom, Google Meet, and Microsoft Teams for conducting online classes. Although the traditional classroom system was later reinstated, the development and improvement of the distance learning model as a requirement of today's times is an increasingly important task in the field of education. This article examines a number of problems and solutions related to the implementation of distance learning.

# ARAB TILINI O‘QITISHDA MASOFAVIY TA’LIM MUAMMOLARI ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI

***Zamira Z.Tojiyeva***
*O‘qituvchi*
*Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi*
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Email: zamira.tojiyeva@mail.ru*
*O'zbekiston, Toshkent*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, an'anaviy dars, arab tili, COVID-19, texnologiya, metod, qiyinchilik, o'qituvchi, talaba.

**Annotatsiya:** Masofaviy ta'limning dunyo miqyosida keng yoyilishiga COVID-19 eng ko'p ta'sir ko'rsatgan faktorlardan biri bo'lib xizmat qildi. Ushbu pandemiya davrida nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar ham mavjud vaziyatga moslashgan holda darsni tashkil qilishdada bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishdi. Pandemiya davrida texnologiyaga asoslangan ta'limga o'tish jarayonlari boshlanishi bilan arab tili o'qituvchilari ham boshqa til o'rgatuvchilar kabi yangi texnologiyalardan foydalanishda mushkulotlarga uchrashdi. Darsni tashkil etishda ko'plab o'qituvchilar zoom, google meet, microsoft team kabi onlayn dars o'tishga mo'ljallangan platformalardan foydalanishda to'qislarga yo'liqishdi. Keyinchalik an'anaviy dars tizimiga qaytilgan bo'lsada bugungi kun zamon talablaridan biri sifatida masofaviy ta'lim modelini shakllantirish, takomillashtirish ta'lim sohasida ahamiyati kun sayin oshib borayotgan vazifalardan biridir. Quyidagi maqolada masofaviy ta'limni joriy qilishga doir bir qancha muammo va yechimlarni ko'rib chiqamiz.

## ПРОБЛЕМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯВ

***Замира З. Тожиева***
*Преподаватель*
*Кафедра теории и практики перевода арабского языка*
*Узбекский государственный университет мировых языков*
*Email: zamira.tojiyeva@mail.ru*
*Узбекистан, Ташкент*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, онлайн-обучение, традиционные занятия, арабский язык, COVID-19, технология, метод, трудность, преподаватель, студент.

**Аннотация:** COVID-19 стал одним из факторов, оказавших наибольшее влияние на распространение дистанционного обучения в мировом масштабе. В период этой пандемии не только студенты, но и преподаватели столкнулись с рядом трудностей при организации занятий в соответствии с существующей ситуацией. С началом процессов перехода к технологическому образованию в период

пандемии преподаватели арабского языка, как и преподаватели других языков, столкнулись с трудностями в использовании новых технологий. Многие преподаватели столкнулись с проблемами при использовании таких платформ для онлайн-занятий, как Zoom, Google Meet, Microsoft Teams. Хотя впоследствии система традиционных занятий была возобновлена, формирование и совершенствование модели дистанционного обучения как одного из требований сегодняшнего дня является одной из задач, значение которой в сфере образования возрастает с каждым днем. В данной статье мы рассмотрим ряд проблем и решений, связанных с внедрением дистанционного обучения.

**Kirish.** Masofaviy shaklda olib boriladigan darsni tashkil qilishda darsni olib boruvchi ustoz va uni tinglovchi talabalarning birgalikdagi faoliyati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Darsdagi oʻquvchiga ta'sir qiluvchi distraktorlar oʻqituvchiga ham bevosita ta'sir qiladi (Zankova, 2019, pp. 177-186). "Onlayn muhitda chet tili oʻqituvchisining asosiy faoliyat xususiyatlari moslashuvchanlik, harakatchanlik va mijozga yoʻnaltirilganlikdir. Bunga erishish uchun oʻqituvchi lingvist, metodist, psixolog, menejer, marketolog va oʻquv materiallari ishlab chiqaruvchisi kasblarini birlashtirishi lozim. Muallifning xulosasiga koʻra, bir qancha kasblar funksiyalarini oʻzida birlashtirish oʻqituvchining kompetensiyasini oshirishga, tizimlilik, moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik va samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi".

**Tadqiqot usullari.** Bugungi kunda masofaviy ta'limni tashkil qilishda bir qancha zamonaviy texnika- texnologiya vositalari, yangi metodlar yaratilgan boʻlsada hali-hanuz arab tilini onlayn oʻqitishda qator kamchiliklar oʻz yechimini kutmoqda. Masalan, ona tilisi arab tili boʻlmagan oʻqituvchining oʻzi ham foydalanishga ehtiyoji bor boʻlgan platformalar, materiallarning yetishmovchiligi. Agar dunyodagi mashhur tillar va ularni oʻrganishga doir materiallar, yaratilgan sifatli platformalarni arab tilidagilar bilan qiyoslasak ulkan farqini koʻrishimiz mumkin. Bu holatda tabiiyki, oʻqituvchi onlayn dars oʻtish jarayonida ma'lumotlar bazasidan dars mavzusiga mos kontentlarni topish yoki yaratishdagi qiyinchiliklarga sabab boʻladi. Qo'shimcha ravishda ushbu materiallarni yaratish uchun ham ancha vaqt ketishini hisobga oladigan bo'lsak, arab tilini onlayn o'qitish uchun tayyorgarlik jarayoni ancha mashaqqatli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, talabada bir tilni ikkinchi tilga nisbatan qiyoslash va baho berishi holati ham bor boʻlib, masalan oʻquvchi shu kunga qadar rus yoki ingliz tilini oʻzlashtirgan va ayni paytda ma'lum bir darajada biladi, bunga qoʻshimcha qilib

u mustaqil ta'limni ham shakllantira olgan va shu vaziyatda arab tilini o'rganishni boshlasa albatta, avvalgi tilni o'zlashtirishdagi jarayonga bu yangi tilni qiyoslaydi. Arab tilini boshqa tillarga qiyos qilib o'rganishning yana bir samarali tomoni shundaki, o'zbek tilida arab tilini o'rganish uchun dastur va materillar kam bo'lib biz ko'plab ma'lumotlarni ingliz tili va yoki boshqa jahon tillaridan olishimiz mumkin.

Har qayday ta'lim olish jarayonida talabaning darsga bo'lgan e'tiborini doimiy ushlab turish o'qituvchining eng birinchi vazifasi hisoblanadi. An'anaviy darslarga nisbatan masofaviy darslarda talabaning diqqatini dars jarayoniga jalb qilish qiyinroq ekanligi ma'lum. Talabaning dars jarayonida nima bilan shug'ullanayotganini bilish va uni nazorat qilishda har bir ustozning o'z individual yondashuvi bo'lishi kerak. Bu uslub o'qituvchining pedagogik mahorati va u ishlatadigan metodlardan kelib chiqib yaratiladi.

Talaba dars mavzuga tushunmaydigan vaziyatlarda o'qituvchidan qayta tushuntirishni so'ray olishi darsning sifatli o'tishini ta'minlaydigan faktorlardan biridir.

Ayniqsa, arab tili o'rganuvchilarning dastavval ishtiyoqi kuchli bo'lishi keyinchalik mavzular qiyinlashib borishi natijasida ishtiyoqning susayishi va e'tiborsizlik va aksar hollarda darslarni tark etish holatlarni yuzaga keltiradi. Bu kabi muammolarni yuzaga kelishini hisobga olgan holda o'qituvchi talabaning e'tiborini o'ziga qaratishi, buning uchun unda bir qancha vositlar shakllangan bo'lib galma-galdan ularni qo'llab borishi kerak.

**Natijalar.** Mavjud muammolarni umumlashtirgan holda ularga yechim o'laroq masofaviy dars tashkil qilishdagi eng muhim omillarni quyida keltirilmoqda:

1. O'qituvchining zamonaviy texnika va texnologiya vositalarini dars jarayonida qo'llay olgan holda darsni tashkil qilishdagi bilim darajasi;
2. O'quvchilar soni;
3. O'quvchining e'tiborini doimiy ushlab turish;
4. O'quvchilarning individual farqlarini hisobga olib ularni ruhlantirish;
5. Darsga o'quvchining vijdonan yondashuvini ta'minlash.
6. O'quvchilarning bilim samaradorligini doimiy tekshirib boorish.

Onlayn ta'lim berishda o'quvchining zamonaviy texnologiyalar haqidagi bilim va ularni ishlatishdagi ko'nikmalari juda muhim omil sifatida qaraladi. Bu borada o'qituvchi qancha muddatda texnologiya qurilmalardan foydalanishga moslashib ketganligini o'rganish maqsadida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. D.V. Kolesova, L.V. Moskovkin, T.I. Popovalar Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotda qatnashgan o'qituvchilarning birinchi savolga:''Siz onlayn o'qitish modelini qanchalik tez ishlab chiqa oldingiz?'' - respondentlarning 77,8% onlayn o'qitishga moslashish uchun 1-2 hafta kerak bo'lganini aytdi, 13,3% avvaldan onlayn metodikani o'zlashtirgan edi, 6,7% esa hanuzgacha optimal modelni topa olmagan, 2,2% esa javob

bermagan. Shunday qilib, aksariyat o‘qituvchilar uchun onlayn o‘qitishga o‘tish kutilmagan bo‘lsa-da, 77,8% ikki hafta ichida yangi sharoitga moslashgan. Bundan ko‘rinadiki, onlayn dars o‘tish uchun texnika bilan tanishish va bilimlarni amaloyotda arab tilini o‘qitishda qo‘llash uchun bir qancha vaqt olsa ham unga moslashish imkoniyatini yaratib beruvchi video darslar mavjud.

An’anaviy darsdalardagi talabalar soni darsning sifatiga ta’sir qilgandek, onlayn darsda ham o‘z aksini ko‘rsatmay qolmaydi. Talabalar sonining ko‘pligi o‘qituvchining boshqaruvchanlik qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa arab tilini o‘qitishdagi tilning o‘ziga xos nozik jihalatlari ko‘pligi sababli talabalarning barchasi bilan ishlash uchun soni kamroq bo‘lishi afzal hisoblanadi. Bu ta’limning sifatli bo‘lishiga ijobiy ta’sir qiladi. Agar darsda talabgorlar soni ko‘p bo‘lsa, texnologiyalar yordamida guruhlarga bo‘lib, interaktiv dars usullarini joriy etish, vizual va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish (video, rasm, infografika) darkor. Oddiy va tushunarli til orqali tushuntirish, bosqichma-bosqich murakkablikni oshirish tavsiya etiladi.

An’anaviy darslarda arab tilini 15-20 nafar talaba o‘rtasida samarali va sifatli o‘tish imkoniyati mavjud bo‘lgan bo‘lsa, onlayn ta’lim talabalarni masofadan turib boshqarishni, ayniqsa, ko‘p sonli talabalar orasida bu yanada qiyinroq bo‘lishini ko‘rsatib berdi. Aksar hollarda talabalar ham texnologiyalardan foydalanishda yetarli bilimlarga ega bo‘lmaganliklari sababli o‘zlari bilmagan holatda darsga halaqit berish holatlari tez-tez yuzaga kela boshladi. Masalan, ovoz qismini keraksiz paytda yoqib qo‘yish va bu orqali o‘zidagi va atrofidagi ovozlarni keng ommaga eshitilishiga sabab bo‘lishi natijada o‘qituvchi ularni boshqarish va nazorat ostida ushlashga qiynaladi.

Nafaqat arab tilini o‘rganishdagi, balki har qanday til yoki fanni onlayn o‘rganishdagi asosiy muammolar e’tiborsizlikdan kelib chiqadi. Yuzma-yuz ta’limda bilimli va talabchan ustoz talabalarning diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratib, ba’zan tanbeh ham berib, saboq jarayonini mahorat bilan boshqarib turadi, natijada o’quvchi mavzuni yaxshrioq o’zlashtiradi. Lekin onlayn ta’limda esa aksar holatlarda talaba avval diqqatini bir joyga yig’ishi qiyin ketachadi, so‘ng mavzu o‘zlashtirilmaydi. Tushuna olmagan narsalari shu darajada ko‘payib ketadiki, natijada barchasining yechimi sifatida o‘qituvchidan yordam so‘rash emas, balki darsni tark etishni afzal ko‘radi. Ushbu ko‘ngilsiz voqeani oldini olish uchun o‘qituvchilar arab tili o‘rgatishda turli xil usullardan foydalanishadi. Misol qilib keltiradigan bo‘lsak, dars davomida turli xil hazillar qilish, savollar berish va taqdimotlardan foydalanish diqqatni jamlashga yordam beruvchi vositalardir. Biroq eng samaralisi suratlar va videolar hisoblanadi. Chunki rangli va harakatlanuvchi tasvirlar talabalarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Aynan shu masalada

taqdiqot amalga oshirilgan. D.V. Kolesova, L.V. Moskovkin va T.I. Popovalfrning taqdiqotiga ko'ra "Onlayn darsda diqqatni jamlashga nima yordam beradi?

- Hazil va chat orqali muloqot – 15.6% - O'qituvchining hazillari – 40%
- Turli yozma, og'zaki, guruh topshiriqlari – 20% - Kichik yozma topshiriqlar – 48%
- Ko'proq savollar berish – 11.1% - Dars davomida savollar berish – 48%
- Uyga vazifaga e'tibor qaratish – 8.9% - Ko'p uy vazifasi – 48%
- Vizual materiallar – 11.1% - Suratlar, rasmlar, videolar – 63%
- Qo'shimcha materiallar tayyorlash – 11.1% - O'qituvchining taqdimotlari – 29%

Bundan ko'rinadiki, o'qituvchilar qiyinchiliklarni yengish uchun darslarni turli topshiriqlar bilan boyitishadi (20%) va hazildan foydalanishadi (15.6%). Talabalar esa eng samarali usul sifatida vizual materiallarni (63%) va kichik yozma topshiriqlarni (48%) ko'rsatishgan. Bu esa onlayn ta'lim jarayonini yaxshilash uchun ko'proq vizual materiallardan foydalanish kerakligini anglatadi."

Arab tilining dunyo tillari orasida qiyinlik darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda ekanligi haqiqat bo'lishiga qaramasdan, o'qituvchi arab tilini o'rganish o'ta murakkab emasligini talabaning ongiga singdirish eng avvalgi vazifalar ro'yxatida turishi kerak. Sababi ko'plab talabalarda arab tilining o'ta murakkab til ekanligi haqidagi tasavvurlari borligi sabab uni o'rganish davomida ko'p marotaba uni tark etish istaklari tug'ilaveradi. Bunday paytlarda o'qituvchi har bir talabaning individual farqlarini hisobga olishi va ularga olg'a davom etish uchun ishtiyoq uyg'ota olishi kerak. Ba'zi talabalar tilda gapirish ko'nikmasini tashkil qilishda introvert xulq-atvor sohibi bo'lganliklari uchun uyalish hissini his qilishadi. Natijada uzoq vaqt ichida ham gapirish ko'nikmasida oqsoqlik bo'lib turaveradi. Mavjud shu kabi holatlarda har bir talablaga o'z xarakteridan kelib chiqib darsni tashkil qilish o'qituvchidan psixologik savodxonlikdan xabardor bo'lish kerak ekanligini anglatadi.

Masofaviy shaklda darsni tashkil qilishdagi vujudga kelayotgan muammolardan yana biri, an'anaviy ta'limda talabaning darsga qay darajada vijdon bilan yondashayotganini bilish osonroq bo'lgan bir paytda, onlayn ta'limda buni bilish biroz muammoligidir. Masalan, yod olish uchun berilgan dialog, matn yoki boshqa istalgan vazifani talaba boshqa biror bir gadjetdan o'qib berayotganligi yoki yoddan aytib berayotganini bilish mushkulroq hisoblanadi. Bu holatda yechim sifatida gibrid shakldagi darslarni, ya'ni tamomila masofaviy emas. balki ma'lum muddat oralig'ida ana'naviy darslarni tashkil qilish, Ayniqsa imtihonlar davrini an'anaviy dars shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari o'quvchiga maxsus tayyorgarlik ko'rishiga sharoit yaratmagan holda tasodifiy savollar yoki bir necha dars avvalgi mavzularni qisqacha takrorlash kabi javobning shaffofligiga xizmat qiluvchi dars tashkil qilish ham bu holatda yordam beradi.

Nafaqat oflayn ta'limda, balki onlayn ta'limda ham talabaning darslarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'limda kichik oraliq nazoratlari tashkil etganimizdek masofaviy o'qitishda ham bir qancha alternativlar mavjud. Talabalarning bilimini tekshirishning ikki xil usuli mavjud. Birinchisi, test savollarining barchasini elektron shaklda tashlab uni bajarish uchun deadline belgilanadi. Ushbu usul oflayn bilan bir xil bo'lib faqat bir kamchiligi shaffoflikni ta'minlash ya'ni topshiriqni hech qanday boshqa yordam beruvchi manbalarga yuzlanmasdan bajarilganligini bilish mushkul hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish maqsadida yana bir usul mavjud qolib unda bilimni tekshirish uchun nazorat soat nechida bo'lishi avvalroq aytib qo'yiladi. Talabarga savollar birdaniga emas, balki birin-ketin berilib javoblar har bir savoldan keyin taqdim etilishi shart etib belgilanadi. Ushbu metodika talabaning bilim darajasini aniqlash va ularni hozirjavoblikka o'rgatishi bilan ham ajralib turadi.

**Xulosa.** Bizning onlayn ta'limga shiddat bilan yuzlanganimizga qariyb 5 yildan oshdi. Bu muddat oralig'ida ko'plab muammolarni hal etdik. Har doim maqsadimiz onlaynmi yoki oflayn talabalarga arab tilini yaxshi va samarali o'rgatish bo'ldi. Ta'lim jarayonida faqat ikki shaxs mavjud: ustoz va talaba. Biz imkon qadar ularning har ikkisiga masofaviy ta'limni oson qilish uchun e'tibor berilishi kerak bo'lgan texnik imkoniyatlardan unumli foydalanib darsni samarali tashkil etish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalarni berdik. Darslarni tashkil etishda o'quvchi soniga jiddiy e'tibor berish va ko'roq vizual materiallarda foydalanish tavsiya etiladi. Til o'rganayotgandagi eng muhim ko'nikmalardan biri gapirish hisoblanadi. Har bir shaxs bir induvid, har kimning o‘z xarakteri va o‘z qarashlari majvud. Misol uchun, ayrimlar omma oldida gapirishda hech qanday to‘siqlarga uchramayotgan bir paytda, boshqa toifalar hayajon sababli ko‘plab muammolarga duch kelishadi. O‘quvchini onlayn dars davomida arab tilida gapirishga majburlash barcha  uchun ham mos emas. Ular bilan alohida birgalikda suhbatlashishga harakat qilish lozim. Talaba bilan ishlash jarayonida uning ota-onasi bilan ham muloqotda bo‘lish tavsiya etiladi. Bu holatda ota-ona farzandining o‘rganayotgan sohasidan xabardor bo‘lishi  talab qilinmaydi. Aksincha ular bolasini ruhiy qo‘llab-quvvatlashi va rag'batlantirishlari kerak bo‘ladi. Zero ilmda nafaqat ustoz naqli, balki ota-ona rag'bati ham muhim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kolesova, D.V., Moskovkin, L.V., Popova T.I. (2021). Urgent Transition to Group Online Foreign Language Instruction: Problems and Solutions // The Electronic Journal of e-Learning, Volume, 19 (1), pp.21-41. (in English)
2. Mohammed, S.J., Khalid, M.W. (2025). Under the world of AI-generated feedback on writing: mirroring motivation, foreign language peace of mind, trait emotional intelligence, and

writing development. Lang Test Asia 15, 7. https://doi.org/10.1186/s40468-025-00343-2 (in English)

3. Xue Wang, Wei Zhang (2021) Psychological Anxiety of College Students' Foreign Language Learning in Online Course. Frontiers in Psychology. doi: 10.3389/fpsyg.2021.598992 (in English)

4. Zeinab Azizi1 and Sayed M. Ismail (2023) What ethical requirements should be considered in language classroom assessment insights? from high school students. Language Testing in Asia 13 (23) https://doi.org/10.1186/s40468-023-00235-3 (in English)

5. Zankova, A.A. (2019). Teacher of russian as a foreign language in the system of non-formal education in the online environment. Prepodavatel 21 vek (Teacher. 21 century), 1, pp. 177-186. (in English)